O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2024 - yil 8 - iyun 459-8-0-Q/24 Surxondaryo viloyati hokimligi

“Termiz” erkin iqtisodiy zonasi hududida elektron onlayn-auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkasining boshlang‘ich narxi hamda har yilgi ijara to‘lovi miqdorini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5600-sonli Farmoni talablaridan kelib chiqqan holda “Termiz” erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi” davlat unitar korxonasining 2024-yil 18-martdagi 01-04/1-son xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. “Termiz” erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi” davlat unitar korxonasining 2024-yil 18-martdagi 01-04/1-son xati inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari Termiz tumani kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-64-212-8-117- K/23-sonli qaroriga asosan:

“Termiz” erkin iqtisodiy zonasining Termiz tumani “Ayritom” MFY hududidagi elektron onlayn-auksion savdolariga chiqariladigan 1 gektar yer maydonining boshlang‘ich narxi – 28 512 000 so‘m;

“Termiz” erkin iqtisodiy zonasining Termiz tumani “Ayritom” MFY hududidagi elektron onlayn-auksion savdolariga chiqariladigan 1 gektar yer maydonining har yilgi ijara to‘lovi narxi – 28 512 000 so‘m etib;

Xalq deputatlari Denov tumani kengashining 2024-yil 9-yanvardagi VI-82-8-8-111-K/24-sonli qaroriga asosan:

“Termiz” erkin iqtisodiy zonasining Denov tumani “Qo‘zichoqli” MFY hududidagi elektron onlayn-auksion savdolariga chiqariladigan 1 gektar yer maydonining boshlang‘ich narxi – 37 184 000 so‘m;

“Termiz” erkin iqtisodiy zonasining Denov tumani “Qo‘zichoqli” MFY hududidagi elektron onlayn-auksion savdolariga chiqariladigan 1 gektar yer maydonining har yilgi ijara to‘lovi narxi – 37 184 000 so‘m etib;

Xalq deputatlari Boysun tumani kengashining 2024-yil 10-yanvardagi VI-70-1-8-110-K/24-sonli qaroriga asosan:

“Termiz” erkin iqtisodiy zonasining Boysun tumani “Inkabod” MFY hududidagi elektron onlayn-auksion savdolariga chiqariladigan 1 gektar yer maydonining boshlang‘ich narxi – 25 424 000 so‘m;

“Termiz” erkin iqtisodiy zonasining Boysun tumani “Inkabod” MFY hududidagi elektron onlayn-auksion savdolariga chiqariladigan 1 gektar yer maydonining har yilgi ijara to‘lovi narxi – 25 424 000 so‘m etib belgilansin.

3. Belgilansinki, kelgusida “Termiz” erkin iqtisodiy zonasining yer maydonlarini elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish jarayonida 1 gektar yer maydonining boshlang‘ich narxi va har yilgi ijara to‘lov miqdori tegishlicha Termiz, Denov hamda Boysun tuman xalq deputatlari Kengashlari qarorlarining har yilgi yuridik shaxslar uchun 1 gektar yer maydonining belgilanadigan yer solig‘i stavkalari miqdoriga mos ravishda belgilanadi.

4. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan viloyat hokimining 2023-yil 7-iyun kunidagi 317-8-0-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror “Surxon tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Jo‘rayev zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyat hokimi **U.B.Qosimov**